

O‘quvchilarning atrofimizdagi olam, tabiat to‘g‘risidagi tasavvur va tafakkurini shakllantirishda tabiiy va tasviriy san‘at fanlarini integratsiyalashning ahamiyati

Jamoliddin Yuldoshevich Raxmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining tasviriy san‘at va tabiatshunoslik darslarida fanlararo aloqadorlikga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bunda har bir o‘qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak. Ushbu maqolada tasviriy san‘at va tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilarning inson, tabiat, jamiyat, ekologiya, axloq, tasviriy san‘at haqidagi bilimlarini rivojlantirishning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat, jamiyat, ekologiya, axloq, tarbiya, qush, hayvon tasvir

The importance of integrating natural and fine arts subjects in shaping students’ understanding and reflection of the world around them and nature

Jamoliddin Yuldoshevich Rakhmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: Special attention should be paid to interdisciplinary connections in general secondary schools’ fine arts and science classes. At the same time, every teacher should have high pedagogical skills. This article discusses the importance of developing students' knowledge of man, nature, society, ecology, ethics, and fine arts in fine arts and science classes.

Keywords: nature, society, ecology, morality, upbringing, bird, animal.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san‘atning ahamiyati muhimdir. O‘rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy (873 - 950) o‘qituvchi haqida gapirib, *“O‘qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘l va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. O‘qituvchi faqat o‘z fani bilangina shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini*

o'z o'quvchilariga ham berishi, bunday mashaqqatli mehnatdan charchashni bilmasligi lozim" degan edi.¹


Olimlarimizning asarlarida sub'ektlararo aloqalar ekologik ta'limning tamoyili sifatida qaraladi. Ularning etakchi roli haqiqiy dunyoning asosiy qismlarini uchligi bilan belgilanadi: *"tabiat - jamiyat – inson"*, ya'ni insonning tabiatni boshqarish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatini belgilaydigan dunyoning moddiy birligi, tabiatning yaxlitligi, tabiatshunoslik va ijtimoiy qonunlar to'g'risida ajralmas tabiat g'oyalaridir.

Ta'limdagi integratsiya - bu bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan, dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun ma'lum bir ta'lim tizimi tarkibidagi tarkibiy qismlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish jarayoni hisoblanadi. Bizning maqsadimiz fanlarning birlashishi, dunyoning umumiy manzarasi to'g'risida eng aniq tasavvurga ega bo'lish istagi bilan ajralib turadi. Tabiiy fanlar o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega. Tabiat - dunyo fani va shuning uchun ham tabiiy fanlar darslari o'quv materialini mazmunini yetkazishning yangi metodikasini talab qiladi, uning asosiy maqsadi bilimlar yig'indisini faqat esda saqlab qolish bo'lib qolmasdan, balki ularni ishonchga aylantirish hamdir. Mahalliy va xorijiy pedagogika fanlari integratsiya muammolarini tadqiq qilish bilan bir qancha olimlar shug'ullanishgan. Turli davrlarda o'quv jarayonlarida fanlararo aloqalardan foydalanish vazifasini Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalozzi, J.J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy ilgari surganlar. Johann Heinrich Pestalozzi bolalarga ilk bor hisob, o'lchash va nutqni o'rgatish metodikasini ishlab chiqdi, boshlang'ich ta'limga geografiya, rasmchizish, ashula, gimnastikadan oddiy ma'lumotlarni kiritib, uning mazmunini kengaytirgan. Yan Amos Komenskiyning sinf-dars tizimini alohida ta'lim mavzularini o'rganishda va ular o'rtasidagi rasmiy-mantiqiy aloqalarda birdamlik yo'qligini tanqid qilib, uning asoschilari ta'limni bolani qiziqtirgan jarayonlar va hodisalar atrofida birlashtirishni va ularni tabiiy hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashni taklif qildi. Germaniyada kompleks usulni eksperimental psixologiya va didaktika asoschilaridan biri Yoxann Fridrix Xerbart himoya qildi. U ta'limning asosiy yadrosini geografiya, "biriktiruvchi tabiat haqidagi fan" deb hisoblagan, uning atrofida matematika, tarix va tabiatshunoslikni birlashtirish tabiiydir.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflar DTS, tabiiy fanlar o'quv dasturi asosida 1-4- sinflarda "Tabiiy fanlar" o'qitiladi. "Tabiiy fanlar" o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlariga ega. Tabiiy fanlar yosh avlodni tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi va unga nisbatan muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat go'zalliklarini idrok etish, qo'riqlash, asrash, undan oqilona foydalanish, shu boyliklarni o'z qo'llari bilan yaratish va ko'paytirishga undaydi.

¹ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-nasr-forobiy-873-950/>

Umumiy o'рта ta'lim maktabi o'quv fanlaridagi har bir dars mashg'ulotini ko'rgazmalilik tamoyili asosida o'qitish talab etiladi. Tabiiy fanlarini tasviriy san'at fani bilan o'zaro bog'lab o'qitishda asosiy didaktik prinsiplardan biri ko'rgazmalilik ekanligini tajribali o'qituvchilar to'la e'tirof etganlar va buning dars samaradorligidagi ahamiyati o'z isbotini topgan. Shunday ekan, tasviriy san'at va tabiiy fanlar o'qituvchisi qush va hayvonlar rasmini tasvirlash borasida kerakli bilim va malakalarga ega bo'lishi, har bir darsda ko'rgazmalilikka e'tibor berishi talab etiladi. Masalan: Animalistik tasvir ya'ni qush yoki parrandalar rasmini chizish va ranglash bosqichlari qo'yidagi tasvirlarda ko'rsatilgan. (1-2-rasm). Namunadagi tasvirlardan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsda ko'rgazma sifatida taqdimot slaydi orqali ekranda namoyish qilishida yoki sinf taxtasi, rassomchilik dastgohida chizishda foydalanishi mumkin.



1-rasm. O'rdakchalar tasviri. 2-rasm. O'rdak rasmini chizish bosqichlari.

Dastlab o'quvchilarga o'rdak haqida ma'lumotlar beriladi. O'rdak-o'rdaksimonlar oilasiga mansub parranda hisoblanadi. O'rdak miloddan ming yil oldin xonakilashtirilgandir. O'rdak deyarli barcha mamlakatlarda, ayniqsa, Xitoy, Indoneziya, Vyetnam da ko'p urchitiladi. O'rdakning tana tuzilishi qayiqsimon, ko'kragi keng, bo'yni va boshi uzun, oyoq barmoqlari suzuvchi parda bilan qo'shilgan. Tumshug'i sarg'ish qizil yoki to'q sariq, bir oz qayrilgan. Patlarining rangi oq, sariq, kulrang, qora rangda bo'ladi. O'rdak vaqtning ko'proq qismini suvda suzish bilan o'tkazadi. Uning gavdasi boshiga nisbatan katta, oyoqlari pardali, bular unga suvda suzishga yordam beradi.


O'rdaklar rangli rasmlardan foydalanish darsni yanada samradorligini ta'minlab, o'quvchilarning tabiatdagi qush, parranda va va hayvonlar haqida atroflicha bilim olishiga sharoit yaratadi. Shuningdek hamoyish etilgan rangli rasmlar o'rdaklarning tasvirini ketma-ketlikda chizish uchun ham zamin yaratadi.

Tabiatdagi hayvonlarning dunyosi, tabiiy sharoitga muvofiq holda moslashib yashashi va ularni hosil bo'lishini kuzatish, hayvonlarni tanish, aniqlash

o'quvchilarning tabiat to'g'risidagi tasavvur va tafakkurini shakllantirishga ham yorlam beradi. Masalan: Bir nechta jonli tabiat rasmlarini chizish bo'yicha berilgan sinf yoki yu vazifalarini bajarishda quyidagi yumronqoziq tasvirini chizishga oid ma'lumotlardan foydalanish mumkin. (3-4-rasm).



3-rasm. Yumronqoziqlarning suratlari



4-rasm. Yumronqoziq rasmini chizish bosqichlari

Vazifalarini bajarishda dastlab o'quvchilarga yumronqoziq haqida ma'lumotlar beriladi. Yumronqoziq- yer ostidagi inlarda yashab, ekinlarga zarar keltiruvchi, tiyinlar oilasiga mansub kemiruvchi sutemizuvchi hayvon. Yumronqoziqlar - tiyinsimonlar oilasiga mansub kemiruvchilar urug'i hisoblanadi. Tanasi 14-40 sm, dumi 4-25 sm. Rangi oqish, yerning qumi rangida, qo'ng'ir kulrang va boshqa turlarga ega.

Yevrosiyo va Shimoliy Amerika pasttekisliklari, tog'li cho'llari, qisman cho'l, tundra va tog'larda (3500 m gacha) tarqalgan. Yumronqoziqlarning 20 dan ko'proq turi bor. Shundan sariq yumronqoziq Qozog'iston va O'rta Osiyo cho'llarida uchraydi. Hamma yumronqoziqlar kunduzi faol hayot kechiradi. Qish faslida uyquga kiradi. Yumronqoziqlar ko'pchik bo'lib yashaydi. O'simliklarning yer usti va osti qismlari bilan oziqlanadi va ularni urug'larini yig'adi. Yiliga bir marta 5-8 tagacha bola tug'adi. Ko'pchilik yumronqoziqlar donli o'simliklarning xavfli zararkunandasi va qator kasallik qo'zg'atuvchilarning tabiiy tashib yuruvchisidir. Yumronqoziqlarning yirik turlari terisi uchun ovlanadi.

Ushbu ma'lumotlar berilgandan so'ng yumronqoziq suratlari va tasvirlash bosqichlari ham ko'rsatiladi. (3-4-rasm).

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarning atrofimizdagi olam, tabiat to'g'risidagi tasavvur va tafakkurini shakllantirishda tabiiy va tasviriy san'at fanlarini integratsiyalashning ahamiyati muhim bo'lib, o'quvchilarda borliqni idrok etish savodxonligini yanada to'laqonli bo'lishiga nazriy va amaliy jihatdan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Yormatova. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. Toshkent. Aloqachi.2008.
2. O. Hasanboyeva, X. Jabborova, Z. Nodirov. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.
3. O.E. Tigay. Tabiiy fanlar. 2-sinf 1 qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent. Novda Edutainment. 2023.
4. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent. Fan. 2004.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.